

TAMAKI TRIPSINING BIOEKOLOGIYASI VA DORIVOR O'SIMLIKLARDAGI ZARARI

Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich, katta o'qituvchi

ORCID: 0000-0002-5689-4563

Rasulova Munira Zuxriddin qizi, talaba

ORCID: 0009-0005-6904-185X

Po'latov Asilbek O'ktam o'g'li, talaba

ORCID: 0009-0007-6344-0539

Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'simliklarining asosiy zararkunandalari tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind) tarqalishi hamda zarar keltirishi oqibatida dorivor o'simliklar barglarini bujmayib qolishiga olib kelishi va tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind) bioekologiyasi turlari haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind), zararkunanda, dorivor o'simlik.

Аннотация. В данной статье приведена информация о распространении и вредоносности основного вредителя растений табачного трипса (*Thrips tabaci* Lind), в результате чего листья лекарственных растений деформируются. Также рассмотрены биоэкологические особенности видов табачного трипса (*Thrips tabaci* Lind).

Ключевые слова: табачный трипс (*Thrips tabaci* Lind), вредитель, лекарственные растения.

Abstract. The article provides information on the distribution and harmfulness of a major plant pest the onion thrips (*Thrips tabaci* Lind), which causes deformation of medicinal plant leaves. The bioecological characteristics of the onion thrips species (*Thrips tabaci* Lind) are also examined.

Keywords: *Thrips tabaci* Lind, pest, medicinal plants.

Kirish. Qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish sohasida katta yutuqlarga erishilganligiga qaramay, hali ham zararkunanda va kasalliklar sababli hosilning ko'p qismi nobud bo'lmoqda.

O'zbekiston sharoitida aholining dorivor o'simliklarga bo'lgan ehtiyojini qondirish bo'yicha bir qator keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Dorivor o'simliklar zararkunandalariga qarshi kurash usullarini takomillashtirish natijasida hosildorlikni sezilarli darajada saqlab qolish mumkin. Dorivor o'simliklar farmasevtika sanoatida muhim o'rin tutadi. Dorivor o'simliklarining usuv davrida zarar keltiradigan hasharotlardan biri bu tamaki tripsi dorivor o'simligiga ko'p tushadigan zararkunanda hisoblanadi. U dorivor o'simligidan boshqa tamaki, g'o'za, piyoz, karam, pomidoraga ham kuchli shikast yetkazadi.

Tamaki tripsi mayda hasharot, uning bo'yi 0,8-0,9 mm keladi tanasi cho'ziq, urg'ochisida uzun, yirik, arrali tuxum qo'ygichi bor bo'ladi. Yetuk hashoratning ikki juft (chekkalari hoshiyali) tor qanotlari bor.

Og'iz apparati sanchib so'rishga moslashgan, kalta. Tripsinng lichinkasi imagosiga qaraganda ochroq tusli qanotsiz, urg'ochilarida tuxum quygich bo'lmaydi, ko'zlari 3-4 ta fasetkalardan iborat, burtchalari olti bug'imli bo'ladi.

Tamaki tripsi yer betiga to'kilgan barglar va o'simlik qoldiqlari ostida qishlaydi. Mart oyida trips begona o'tlarda rivojlanadi, keyin g'o'zaga o'tadi. Urg'ochisi bir oycha yashaydi va shu vaqt mobaynida o'simlik to'qimalariga 100 tacha tuxum qo'yadi. Tuxumlaridan 3-4 kundan so'ng lichinka chiqib, asosan barg tomirlari bilan oziqlanadi. To'rt marta tullagach, lichinka yetuk hasharotga aylanadi. O'zbekiston sharoitida trips 7-8 marta avlod beradi. Dorivor o'simligi maysalari unayotganda tripslar yosh barglarga va o'suv nuqtalariga joylashib oladi. Zararlangan barglarning ost tomoni o'ziga xos ravishda kumushsimon yaltirab qoladi, uchki kurtaklar o'lgach, dorivor o'simligi o'simligining rivojlanishi izdan chiqadi, ba'zan yosh o'simlik nobud bo'ladi.



1-rasm. Tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind)

Agrotexnik kurash choralari qishloq xo'jalik ekinlarining yaxshi o'sib rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish zararli organizmlari ommaviy ko'payishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan bo'lib, bunda zararkunanda rivojlanishi uchun noqulay sharoit yaratiladi. Barcha agrotexnik chora-tadbirlar zararkunandalarni ko'payishining oldini olishga qaratilgan. Lekin ayrim hollarda agrotexnik usullari bilan ham ularni butunlay nobud qilish mumkin. Tamaki tripsi jumladan barcha zararkunandalarning tez ko'payishi va zarari juda ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bularga yetarli oziqa o'simligining bo'lishi va ularning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqlim sharoitining mavjudligi bilan bog'liq. Ilmiy asoslangan agrotexnik chora-tadbirlar zararkunandalarga jumladan tamaki tripsiga uzoq vaqt ommaviy ko'payishiga va ularning zarar keltirish darajasini kamaytirishga qaratilgan. Xo'jaliklarda o'tkaziladigan tashkiliy xo'jalik choralari zararkunandalarni ko'payishini oldini olish ilmiy asoslangan qarshi kurash rejalarini ishlab chiqish bashoratni to'g'ri tashkil etish. Ko'p yillik bashorat asosida almashlab ekishni tashkil etish o'ta dolzarb va muhim masalalardan biri xos bo'lib, hisoblanadi.

Xulosa. Bizga ma'lumki, ko'pgina sanchib so'ruvchi zarar-kunandalar o'simlik qoldiqlarida, dorivor o'simligi poyalarida qishlab qoladi ularni o'z vaqtida sifatli yig'ib olinishi ushbu zarar-kunandalarning erta bahorda kam bo'lishiga olib keladi. Dorivor o'simligidagi tamaki tripsiga qarshi tashkiliy xo'jalik cho-

ralarini hamda ko'rsatib o'tilgan tripsining rivojlanishini fenologik kalendari asosida rejalashtirish maqsadga mofiq bo'ladi. Tashkiliy xo'jalik tadbirlarni agrotexnik tadbirlar asosida olib borish dorivor o'simligidagi tamaki tripsining sonini kamaytirishda yuqori samara beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487
2. Sh.T. Xo'jayev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. – 2014.
3. Dusmanov I., Xolliyev A. O'simliklar zarar-kunanda kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Tavsiyanoma. 2015.
4. Dorivor o'simlik zarar-kunandalari. B.Q.Muxammadiyev, A.T.Xolliyev, N.Irgasheva, A.Xasanov, T.: "ToshDAU tahririyat-nashriyot" bo'limi, (o'quv qo'llanmasi). 2019.